

KONFLIKT ISHTIROKCHILARI BILAN ISHLASH

*Ulug'berdiyeva Sevara Bahodir qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
o'qituvchi. [u.shomurotov@dtpi.uz](mailto:u.shomurotov@dtpi.uz)  
+998915107420*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlar konfliktni vujudga kelishi, konflikt ishtirokchilari bilan ishlash va konfliktlarning nomoyon bo'lish shakllari va turlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Konflikt, konfliktogenlar, agressiya, zo'ravonlik, konflikt ishtirokchilari, nizo.

**Абстрактный.** В данной статье говорится о возникновении конфликта в межличностных отношениях, работе с участниками конфликта, а также о формах и видах конфликтов.

**Ключевые слова.** Конфликт, генераторы конфликта, агрессия, насилие, участники конфликта, конфликт.

**Abstract.** This article talks about the emergence of conflict in interpersonal relations, working with conflict participants, and the forms and types of conflicts.

**Key words.** Conflict, conflict generators, aggression, violence, conflict participants, conflict.

Inson o'z hayotida bolalaik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo'ladigan turli munosabatlarning uzliksizligidan iborat bo'lgan jarayonlardir. Ana shu munosabatlar esa har doim bir tekis, silliq va tekis davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib yuradi. Shunday ekan hayotni buzuvchi holatlarni biz konfliktlar deb ataymiz. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini konfliktlardan himoyalanganman deb ayta olmaydi. Konflikt inson hayotining ilk davrlaridan boshlanadi desak mubolog'a bo'lmaydi, ya'ni bolalik davrida o'yinchoqlar talashish, birovlariga hasad qilish yoki bolalarning janjal qilib urishgan jarayonlarining ustida ko'p bo'lganmiz. Konflikt tabiiy hodisa bo'lib konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, err-xotin, qaynona-kelin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, kasbiy faoliyatda, shuningdek pedagogi faoliyatda va

konfliktlarning eng zararlisi bo'lgan hatto go'daklar uchun ham hafl bo'lgan davrlarlar o'rtasidagi konfliktlarga ajratib o'rganamiz. Qanday konflikt bo'lishidan qat'iy nazar ularning ishtirokchilari insonlardir.

Endilikda esa quydagi savollarga javob topishga harakat qilamiz. Xo'sh, aslida konflikt nima, uni yengib bo'ladimi, undan inson o'zini ehtiyot qila oladimi, konfliktlessiz yashashning tartib va qoidalari bormi, agar mavjud bo'lsa ular qanday?

Har bir inson konfliktlar bilan to'qnash kelishi aniq bo'lganligi sababli konfliktlar haqida keng bilimlarni tarbiyalash va shakllantirish muhim pedagogic ahamiyat kasb etadi. Shu bois konfliktlar to'g'risida ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish hozirgi zamonda yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash hamda jamiyatda o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lishida zarur ehtiyojlardan bo'lib ana shunday bilimlarni targ'ib etish davrimizning dolzarb vazifalaridandir.

Konflikt oddiy hol. Chunki konflikt har birimizning turmushimizda va tirikchiligimizda xos bo'lgan, hayotimizga tegishli narsa. Ammo ko'pchilik ongida an'anaviy fikrga ko'ra konflikt bu – oddiy hole mas, u ziddiyatli hol, undan o'zini muhofaza qilish kerak, konfliktdan “qochish “ kerak. Konfliktlardan qochish bizga bolalaligimizdan katta yoshlilar tomonidan o'rgatilib kelinadi. Konflikt bizning menalitetimizda “yaxshi” bo'lmagan holat va vaziyat hisoblanadi va xalq orasida urush, janjal kabi iboralar bilan yuritiladi.

Insonlar konfliktli davrni hayotining eng “yomon davri “ sifatida bilishadi. Konfliktlar inson hayotining tabiiy tarkibiy qismidir. Har doim konflikt vaziyatga tushib qolish imkoniyati mavjud bo'lib, hech bo'lmaganda bir bor konflikt ishtirokchisi bo'lgansiz.

Konflik bu- o'zaro qarama- qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvidir. Bu to'qnashuvchilarning ishtirokchilari esa bevosita odam yoki odamlar guruhidir. Konflikt o'zidan -o'zi paydo bo'lib qolmaydi, uning zamirida insonlarning o'zaro munosabatlar to'qnashuvi yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'ladi. Lekin bizga juda oddiy holdek bo'lib ko'rinadi. Biz bu konfliktlarning oldini olmasak har qanday jarayonda ham insonlar o'rtasidagi munosabatning Keskin yo'qalishiga olib keladi. Konfliktning nomoyon bo'lish turlari ikki xildir- bularga antagonistik(murosasiz) va agonistic(murosaga keladigan).

#### **Agonistik konflikt quydagicha:**

Bu konflikt konfrantatsiya (konflik)-satsial guruhlarining qarama- qarshi siyosiy, ekologik, sotsial manfaatlariga passiv qarshi turishi. Konfrantatsiya ochiq to'qnashuv shaklini olmaydi. ammo farqli qarashlar mavjudligini ko'zda tutuib raqobatga o'sib ketishi mumkin.

#### **Antogonistik konflikt quydagicha.**

Norozilik- mavjud holatdan aniq ifodalanmagan holda norozilik bildirish. Avvaliga asabiylashuv paydo bo'ladi, u nizoli vaziyatga o'tib boradi. Noaniq

talablarga nisbatan aniq ifodalangan talablarga aylanib, lekin norozilik ishtirokchilarining istaklari ham tushinarli emas, ya'ni ularning irodasi aniq ifodalanmagan bo'ladi. Keyinchalik esa norozilik o'sib g'alayon yoki qo'zg'olangan aylanib boradi.

Har qanday konflik ham birinchi navbatda insonning o'ziga yomon ta'sir qiladi. Misol uchun sog'ligini olsak asabiylashuv natijasida turli xil kasallikalar orttirishi ehtimoldan holi emas.

Birinchidan bolalaigimizda bizga katta ta'sir o'tkazgan kelishmovchiliklar bizga e'tiborsiz kichik jiddiy bo'lmagan hodisalarga ba'zan esa kulgili holatlarga aylanadi. Ya'ni biz ulg'aygan sari konfliktlarga aqli rasolik va sipolik sog'lom fikrlik asosida yondashamiz Shubha yo'qki ulg'aygan insonlar ya'ni kattalar konfliktlarga kichiklarga nisbatan boshqacharoq yondashishadi. Masalan talabalar o'rtasida ko'p uchrab turadigan holatlardan bir misol: Bir yigit bir qizni yoqtirib qoldi ammo u yigitga emas, yigitning do'stiga e'tibor qaratdi. Yigitni nima qilishi kerak degan savol qiynay boshladi. O'sha bola bilan bir chekkada chiqib alohida gaplashib olish lozimligi haqida o'yladi. Ammo mana shu niyat to'g'rimi yo yo'q, yigit buni bilmasdi. Yigit o'z hissiyotlariga bo'ysinishga majbur bo'ldi. Emotsiyalar esa yigitni qasd olishga, baxti chopgan Bolani bir o'qitib qo'yishga orani yigitchasiga qilib ochib olishga chaqirdi. Keyinchalik esa bu holat konflikt boshlanishining kichgina bir ko'rinishi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shu jumladan kelib chiqib konfliktli vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida "konfliktogenlar" juda muhim rol o'ynaydi. "Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, harakatlar konfliktogenlar" deb ataladi.

**Konfliktli vaziyat vujudga kelmasligi uchun quydagilarga amal qiling:**

- O'zingizni ustun qo'yishni ochiqchasiga ko'rsatmang.
  - Maqtanchoqlik qilmang.
  - Qat'iylik, fikr va qarashlar keskinligiga haddan ziyod berilmang.
  - O'z maslahatlari va fikrlarini majburiy singdirish va qabul qilishga harakat qilish.
  - Suhbatdosh so'zlarini bo'lmang.
  - Informatsiyani yashirishga urinmang.
  - Aldashga harakat qilmang.
  - Suhbatdoshining biron kamchilligi yoki muvaffaqiyatsizligini doimo ta'kidlab o'tishga harakat qilmang.
  - O'zingizning ustingizdagi ma'suliyatni birovlarga yuklashga harakat qilmang.
  - Pul qarz so'rash.
- Agressiyaga moyillik.
- Ko'pchilik agressiyaga moyillikni faqat yigiyilarga xos deb biladi. Aslida esa unday emas. Agressiyaga moyillik ham yigitlarga ham qizlarga xos xususiyat.

Agressiya va zo'ravonlik o'zaro bog'liq tushuncha bo'lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'ravonlikka olib borish mumkin. O'zi agressiya so'zining o'zi lotincha "hujum qilish" degan ma'noni anglatadi. Har doim bir narsani yodimizda tutishimiz kerakki, zo'ravonlik konflikt yechimi bo'la olmaydi, u konfliktni zo'ravonlik va agressiyaga to'qnash keltirish degani holos. Zo'ravonlik tomonlarni hech qachon bir-birlariga yaqinlashtirmaydi, balki uzoqlashtiradi. Buddha ta'limotidagi fikrlarga ko'ra "Haqiqiy g'alaba hech kim o'zini mag'lib etilgan deb hisoblamagan holatidagi g'alabadir" degan g'oyada aniq ko'rinib turibdi. Konflikt ishtirokchilari bilan ishlayotganda eng yaxshi ta'sir etish usuli bu kommunikativ jarayondir, ya'ni bu jarayon konfliktni birdaniga parchalab yuborishi ham mumkin yoki bo'lmasa konfliktni olov qilib yondirishi ham hech gap emas.

"Tolerantlik" ana shunday so'g'lom aqida va g'oya sifatida insonlaro munosabatlarni tartibga soladi, ular o'zaro sog'lom muloqot qilishga o'rganadi. Shu nuqtai nazardan tolerantlik tushunchasi ekstremizm tushunchalariga qarshi bo'lib, falsafiy-ijtimoiy ong tarkibidan o'rin oladi va inson tafakkurida nomoyon bo'ladi." Tolerantlik lotincha chidamlilik, bag'rikenglik, sabr-toqatlilik, yon berish" kabi ma'nolarni bildiradi.

Konflikt yechimi topish o'z opponentiga qarshi kurash emas, balki uning maqsadlari va manfaatlarini tushunishga harakat qilish. Shu bois, ijobiy va har ikki tomon uchun foydali muloqot sirlaridan voqif bo'lish zarur, o'z jahlini g'azab va nafratini jilovlashning eng maqbul yo'llarini o'rganish, muomala madaniyati, boshqalarni eshitish va anglashga o'tish o'zgalarga hurmat bilan qarash kabi usullar ziddiyat ichiga kirgan har ikki tomon uchun ham konfliktlar yechimining zarur talablari hisoblanadi.

Mojarro haqida har bir tomon baham ko'rgan asosiy faktlar, his-tuyg'ular va ta'sirlarni qayta ko'rsating. Tomonlar va guruh a'zolaridan kerak bo'lganda xulosangizga qo'shilishlarini so'rang. Keyin vaziyat haqida har qanday kuzatishni so'rang. Mojaroga yechim topish jarayoni. Odamlar faqat mojarro va uning yechimiga e'tibor qaratish uchun uchrashadigan vaqtni toping." Shaxsiy hujumlarga yo'l qo'ymaslik" "Tushunish uchun savollar berish" "Bir vaqtning o'zida bir kishi gapiradi".

Konflikt vaziyat u qanday bo'lsa o'shanday, o'z emosiylaringizdan holi bo'lgan tarzda qabul qiling Konflikt vaziyat sizga yoqmasligi sizga qarshi holatni vijudga keltishi, umuman rejalashtirilmagan holda kelib chiqqan ham bo'lishi mumkin. Konflikt mazmuni ularning kelib chiqish sabablari, konfliktda qanday holatlar vujudga kelganli borasida bilib oling.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Saidov .A.I, Eshquvvatov.T.E, Inonqulova.N.I “Konfliktlar psixalogiysi” Samarqand-2015.
2. M.T.Axmedova “Pedagogik konfliktologiya” Toshkent-2020. Z.A.Zaripov “Konfliktologiya” Toshkent-2013.
4. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
- 4 Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
- 5 Melikboboyevich, S. U. (2024). CHANGES IN STUDENTS'MENTAL STATUS DURING MASTERING THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING (IN THE EXAMPLE OF AGGRESSION). *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 142-148.
- 6 Melikboboyevich, S. U., Davrbek o'g'li, M. D., & Azamat Jo'rakul o'g, X. (2024). SHAXSDA SALBIY TUZILMALARNING PAYDO BO 'LISHI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 218-228.